

O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN’ATIDA GAFIKANING O‘RNI VA U QUTLUG‘ BASHAROV IJODI MISOLIDA

Akbarxo‘jayev Abdulaziz Ahmadxo‘jayevich

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti

E-mail: a_abdulaziz62@mail.ru

ANNOTASIYA

Mavzuning qiyosiy taxlili shu bilan belgilanadiki, O‘zbekiston tasviriy san’atida gafikaning o‘rni hamda ijodkor malakali grafik rassom Qutlug‘ Basharov ijodi chuqur tahlil qilinadi va uning uslublari o‘rganib chiqilgan. Mazkur mavzuni to‘liq yoritishga qaratilgan bu maqola bo‘lajak grafik rassomlar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston tasviriy san’atida gafikaning o‘rni haqida yoritilgan, shuningdek, amaliy ishlashga o‘rgatish usullari kabi masalalarga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Avangardizm, romantizm, impresionizm, abstrakstionizm, grafika, bosma, tirajli grafika, illyustratsiya, epo, realistik, ofort, antologiya, estamp, linogravyura, litografiya.

THE ROLE OF GRAPHICS IN THE FINE ARTS OF UZBEKISTAN AND IT IS AN EXAMPLE OF KUTLUG BASHAROV’S CREATION

Abdullayev Abdulla Abdullayevich

Dotsent National Institute of Fine Arts

and design named after Kamoliddin Behzod

E-mail: a_abdullayev@gmail.com

Abstract: The comparative analysis of the topic is determined by the fact that the place of graphic art in the visual arts of Uzbekistan and the work of the skilled graphic artist Kutlug Basharov are deeply analyzed and his styles are studied. This article, which aims to fully cover this topic, highlights the role of graphics in the visual arts of Uzbekistan, which future graphic artists should master, and also focuses on issues such as teaching methods for practical work.

Key words: Avantgarde, romanticism, impressionism, abstractionism, graphics, printing, printed graphics, illustration, epo, realistic, etching, anthology, estamp, linocut, lithography.

O'zbekistonning mustaqilligi milliy tasviriy san'atni taraqqiyotiga zamin yaratdi. Bu davrda tasviriy san'atning rangtasvir, xaykaltaroshlik, grafika turlari, uning ko'pgina janrlari rassom va xaykaltaroshlarning erkin ijodiy faoliyatlar keng tus oldi. Sobiq Ittifoq davrida ijodkorlar yagona sostialistik realizm oqimida ijod qilgan bo'lsalar, xozir ular ham ikkilanmasdan o'zlarini qiziqtirirayotgan avangardizm, romantizm, impresionizm, abstrakstionizm va boshqa qator oqimlarda va mavzularda yuksak badiiy saviyada asarlar yaratmoqdalar.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy sohadagi tanlangan rivojlanish yo'li ta'lim sohasini ham tubdan yangilash bo'yicha isloxotlar o'tkazishni taqozo etdi. Bu isloxotlar o'z oldiga ma'lum bir vazifalarni maqsad qilib qo'ydi. Bulardan jamiyatimizning muhim vazifalaridan biri – o'zida ma'naviy boylikni, axloqiy poklik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan, san'at turlarini puxta biladigan insonni etishtirishdir. Ana shu tarixiy vazifani hal qilishning asosiy omili murakkab va ko'p qirrali tarbiya tizimidan iboratdir. Mazkur tizimda yosh avlodni san'at vositasida tarbiyalash muhim rol o'ynaydi.

Ayniqsa, tasviriy san'at ijodkorlarining imkoniyat va salohiyatini to'laqonli yuzaga chiqarish, rangtasvir va amaliy san'at asarlarining yuksak sifatini ta'minlash borasida keyingi paytlarda dolzarb muammolar to'planib qolgani, jumladan, sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlarning bugungi kun talablariga javob bermasligi, mavjud moddiy-texnik bazaning nochorligi, malakali kadrlar yetishmasligi, xalqaro ijodiy va ilmiy aloqalarni rivojlantirish hamda ijodkorlarni har tomonlama rag'batlantirish va iste'dodli yoshlarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishda yuzaga kelayotgan sustkashliklar mazkur sohaga davlatimiz tomonidan e'tiborni kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Jahon tasviriy san'at xazinasidan munosib o'rin olgan grafika san'ati Sharq xalqlarining mushtarak badiiy merosi hamdir. U qadimgi nodir qo'lyozmalarni ziynatlash bilan birga, mazkur asarlardagi ilg'or insonparvarlik g'oyalari, oliyjanoblikka bo'lgan intilish, go'zallik to'g'risidagi tasavvurni ifodalashga ham xizmat qilgan. Turli san'atkorlar - xattot, rassom, mo'zaxxib, muqovasoz, jadvalkash va boshqalarning ijodii hamkorligida yaratilgan nodir qo'lyozmalar o'sha davr madaniy, ijtimoiy hayotini badiiy-estetik qarashlarini o'rganishda qimmatli manbalardan hisoblanadi.

Insonni, uning didini, ehtiyojini, milliy o'ziga xosligini hisobga olish, uni estetik va ma'naviy tarbiyalash, axloqiy kamol toptirish xalq, hayoti-moddiy, ham ma'naviy jixatini qamrab oluvchi badiiy tizim, dekorativ-amaliy san'at uchun zarur bo'lgan badiiy maktab, uslub tushunchasi bilan belgilanadi. Xalq didini, uning hayotiy qadriyatlar, go'zallik to'g'risidagi tasavvurlarini ifodalovchi va mustahkamlovchi

usullarning muayyan tizimi ishlab chiqildi. Bu esa musavvir shaxsiyati shakllanadigan ijtimoiy badiiy asos, muhitdir. Tarkibiy uslubga oid asarlardagi usulning yuksak ahamiyati, ma'naviy mazmundorligi shundandir. Musavvirlar ijodining asosiy qoidasi milliylikni tasvirlash, turmushni bilish, inson qalbining nafis musiqiy, ba'zan esa sirli tebranishini ko'rsatish, narsani uning mohiyati bilan qanday bo'lmasin aynanlashtirish va nihoyatta ulkan ijrochilik mahoratidir.

«Grafika» tushunchasi o'z navbatida ikki asosiy bo'lim - "bosma yoki tirajli grafika" va "badiiy grafika"larni o'z ichiga oladi. Badiiy grafika bu avtor tomonidan yagona nus'hada yaratilgan asardir. Bosma grafikada asar ma'lum bir avtor tomonidan yaratiladi va turli bosma texnikalar yordamida nashr qilinadi.

Bajariladigan vazifasiga qarab grafika quyidagi turlarga ajraladi:

Dastgohli grafika – dastgohli kompozitsiyalar, estamp;

Kitob grafikasi – illyustratsiyalar, kitobning badiiy yechimi va dizayni;

Jurnal va gazeta grafikasi;

Kompyuter grafikasi;

Sanoat grafikasi va b.sh.

Grafikaning nisbatan eng yosh turi bu plakat bo'lib, u XIX asrda reklama vositasi sifatida paydo bo'lgan (J. Shere, A. Tuluz-Lotreka afishalari), keyinchalik siyosiy chikilar vositasiga aylangan (V. V. Mayakovskiy, D. S. Moora, A. A. Deyneki, Trepkovskiy plakatlari).

Yangi davr zamonaviy kitob grafika san'atida A. Bobrov, A. Mamajonov, M. Karpuzas, Yu. Gabzalilov, A. Kiva, A. Panamaryov-lar, shuningdek, O. Vasixonov, G. Millerlar jiddiy grafika ustasi bo'lib qolmoqdalar. Tajribali grafikachi rassom Q. Basharov R. Kiplingning «Maugli» kitobiga an'anaviy realistik uslubda o'ttiz to'rtta rangli illyustratsiyalar ishlangan. Qalam (pero), guash va suvbo'yoq texnikalarini puxta egallagan A. Bobrov xalq ertaklariga ifodali, obrazli va o'ziga xos uslubda illyustratsiya yaratmoqda. Grafika ustasi A. Mamajonov «Alpomish» eposiga realistik va mazmunan ifodali bo'lgan illyustratsiyalarni tush va peroda bajargan. Shu bilan bir qatorda u ofort texnikasida Navoiy asarlari «antologiyasi»ga illyustratsiyalar ishlagan, ularda miniatyura an'alarining ta'siri seziladi. Shuningdek, qoraqolpoq dostoni «Maspasha» ham A. Mamajonov tomonidan bajarilgan.

Grafika sohasida badiiy bilim yurti darajasida ma'lumot olgan Qutlug' Basharov ijodiy faoliyati haqida so'z borar ekan, O'zbekiston xalq rassomi 1925 yilda Alma Ata viloyatidagi Mala-Aksu qishlog'ida dunyoga kelgan. Maktab davridayoq tasviriy san'atga qiziqishi uni P.P. Benkov nomidagi Respublika rassomlik kollejining rangtasvir bo'limida o'qishiga sabab bo'ldi.

Qutlug' Basharov ijodga juda erta kirib keldi. Uning serqirra ijodiy faoliyati Respublika Rassomlik bilim yurtida o'qib yurgan kezlardan boshlangan edi. U

Toshkent Davlat teatr va rassomlik institutiga o'qishga kirganda mashhur rassom ekanligi ma'lum bo'lgan edi. Shu institutda ko'p yillar grafika kafedrasini mudiri lovozimida ishladi va 1985 yil professor unvonida tasdiqlandi. Serunum ish faoliyati davomida Qutlug' Basharov o'ziga hos grafika maktabini yaratdi. Uning rahbarligida grafika ixtisosligini tugatgan 200 dan ortiq talaba grafika san'ati mahoratini eganlab, ijod bilan izchil shug'ullanib kelmoqda. Qutlug' Basharov mahorati baland, sermaxsul ijodkor nafaqat dastgoxli grafika san'ati balki rangtasvir asarlari bilan xam katta muvoffaqiyat qozondi. U ijodiy izlanishlari davomida 2000 dan ortiq badiiy asarlar yaratgan. Q.Basharovning ijodi kamol topgan yillardagi asarlari bilan tanishar ekanmiz, ularda obrazlikning kuchli va ta'sirchan badiiy sayqal topganligi, novatorlikka intilish hamda atoqli grafika ustalari kashfiyotidan ijodiy foydalanishga moyillik mavjudligini sezamiz. Q.Basharovning turli mavzularga bag'ishlangan dasgohli xamda kitob grafikasiga oid asarlari ahamiyatli, rasmiyatga kirib qolgan yoki kon'yuktur asarlar emas, haqiqatan voqyeligimizga hamohang, yuksak professional mahorat bilan yaratilgan asarlardir. U ijodida badiiy haqiqatni ishonarli, jonli talqin etgan. Bu esa ijodkor asarlari qimmatini yanada oshirgan. Q.Basharov mehr qo'rini bergan dastgohli rasmlarining yana bir ajoyib fazilati shundaki, ularda inson, uning mehnati va kurashi, orzu-umidlari, ezgu niyatlari nafis hamda ehtiros bilan tasvirlangan. Rassom birinchi navbatda kitob mazmunini obrazli ochib berishga harakat qilish bilan birga, uning tashqi va ichki bezagining chiroyli, bejirim kitobxon diqqatini tortadigan bo'lishiga harakat qiladi. Kitobning ichki bezaklariga: titul, kontrtitul, shmutstitul, zastavka, yakun va harflarga kelganda Q.Basharov bu sohada ham o'z qobiliyatini sinab ko'rди va kutilgan natijaga erishdi. U grafik bezaklarlari bilan kitob sahifalarini jonlantiruvchi va unga ma'no baxsh etuvchi, ajoyib yaxlit hamda qo'shsaxifalar tuza oluvchi rassom sifatidai mahorat ko'rsatdi. Umuman, Qutlug' Basharovning o'tgan o'n yil mobaynida bezagi kitoblari butun bir kutubxonaga yetay deb qoldi, shulardan ajoyib bir guldasta tuzish mumkin. Bu guldasta kitobxonlarni bilim dargohida, go'zallik olamiga olib kirishda ajoyib robita bo'lib xizmat qilmoqda. San'atkor kitob bezakchiligida faqat o'ziga xos uslub yaratibgina qolmay, balki kitoblarni sodda va nafis maketlash, o'ziga xos harflar tanlash, rasmlarni o'rni- o'rniga joylash, arxetikonikasi sohasida ham qilqalamligini namoyish etdi, ko'plab shogirdlarga ustozlik qildi.

Q.Basharov 1963 yildan 200 dan ortiq Respublika va Xalqaro ko'rgazmalar va tanlovlarda qatnashib oltin medal va birinchi darajali diplomlarga sazovor bo'lgan. Uning ijodiy asarlari ko'plab muzey va galeriyalarda, shular qatori, mashhur Tretyakov galeriyasi, Rossiya madaniyati vazirligi kolleksiyalari, Ko'rgazmalar direksiyasi, O'zbekiston davlat san'at muzeyi va boshqa turli davlatlar Avstriya, Vengriya, Misr,

Kanada, Mangoliya, Italiya, Chexiya, Xindiston, Polsha, Fransiya, Yugoslaviya, AQSh, Angliya, Koriya galeriyalari va shahsiy kolleksiyalaridan o‘rin olgan.

Qutlug‘ Basharov samarali ijodiy yutuqlari e‘tirofi sifatida: 1975 yil “O‘zbekiston xalq rassomi“ unvoni, 1988 yil “Xalqlar do‘tsligi ordeni”, 1994 yil “Shuxrat” medali, 1999 yil “El-yurt hurmati” ordeni bilan taqdirlangan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Qutlug‘ Basharov 1997 yil birinchi prezidentimiz tomonidan O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi Akademigi etib tayinlandi.

Grafik yaratgan manzara va portretlar, natyurmort va miniatyuralar, tarihiy voqyealar tasviri deysizmi, ularning barcha-barchasida milliy ruh shunday ufurib turadi. Qutlug‘ Basharov O‘zbekiston grafika san’ati asoschisi jonkuyarlaridan edi deb, so‘z boshladi; shogirdlaridan biri grafik rassom, Nosir Xusanov, ustozini yod etarkan. U grafikaning barcha turlari bo‘yicha erkin ijod qilgan ijodkor. Uning asarlarini dunyoning o‘ta nufuzli muzeylarida uchratishimiz mumkin. Q.Basharov asosan grafikaning estamp, linogravyura va litografiya turlarida juda katta o‘lmas meros qoldirgan. Uning asarlarida haqchillik, go‘zal O‘zbekiston tabiati, urf-odatlar, ananalari buyuk allomalar portretlari juda yuqori notada ko‘yilgan.

Q.Basharov ko‘p yillar davomida “Meditsina” nashryotida bosh muharrir rassom bo‘lib ishlab, kitobot san’atiga katta xissa qo‘shgan. Q.Basharov O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi grafika seksiyasida uzoq yillar faoliyat yurgizish bilan bir qatorda, grafika bo‘yicha butun ittifoqqa o‘tqazilayotgan konkurs va ko‘rgazmalarda o‘lkan marralarga erishgan. Q.Basharov inson sifatida boshqalarda uchramaydigan ajoyib fazilatlarga ega edi. Uning mehnatkashligi, o‘z kasbiga fidoyiligi, shogirdlariga nisbatan mehribonligi va qattiyatliligi va boshqa muhim jihatlari atrofda qilarga o‘rnak bo‘ladigan darajada edi. Q.Basharov tarbiyalagan shogirtlari ichidan; san’at arboblari, akademiklar, yetuk grafik rassomlar yetishib chiqqanlar. Bulardan; M.Kagarov, M.Sadikov, N.Husanov, Z.Vohidov va boshqalar.

U 1963 yildan Respublika miqiyosidagi barcha ko‘rgazmalarda ishtirok etib, fahrli o‘rinlarni eganlagan va rassomchilik san’atining barcha sohalarida o‘z mahoratini namoyon qilgan san’atkordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyayev. Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining undalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari big‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi prezidenti nutqi”. Xalq so‘zi gazetasi. 2017 y. 16 fevral, №11.
2. Abdullaev N.U. «San’at tarixi». Toshkent, O‘qituvchi, 1986 y. (5-19)
3. Zigonshina T. “O‘zbekistonda san’at va madaniyat” G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot – T.: 1978. S – 160 s.
4. “Rassom va kitob”. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot. – T.: 1987 s – s.